Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligasiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligasiyalar bilan bog'liq risklar.....	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	



“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”



Ismailov Dilshod Anvarjonovich

TDIU. dots.

ORCID: 0000-0001-7199-3773

Email: dilshod555555@gmail.com

Akramova Aziza Abduvohidovna

TDIU, talaba

ORCID: 0009-0006-9345-5507

Email: azizaakromova272@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonning iqlim o'zgarishlariga nisbatan yuqori darajadagi zaifligi mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha milliy strategiyasi chuqur tahlil qilinadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror energiya, suv resurslarini boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari va yashil ish o'rinlari yaratish borasida istiqbolli imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, institutsional salohiyatning yetarli emasligi, moliyalashtirishdagi cheklovlar va texnologik innovatsiyalar yetishmovchiligi kabi muammolar aniqlangan. Mualliflar xalqaro tajribani inobatga olgan holda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini taklif qiladilar. Tadqiqot xulosalari mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish, ekologik innovatsiyalar.

Abstract: Uzbekistan, like other Central Asian countries, is highly vulnerable to the impacts of climate change, which necessitates an accelerated transition to a green economy. This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan's national strategy for transitioning toward sustainable development. The research identifies promising opportunities in renewable energy, water resource management, environmental protection technologies, and green job creation. However, several challenges persist, including limited institutional capacity, financing gaps, and insufficient technological infrastructure. By examining international best practices, the authors propose key policy directions to enhance green economic development in Uzbekistan. The findings offer both theoretical and practical relevance for ensuring long-term economic growth and environmental sustainability in the country.

Key words: green economy, sustainable development, energy efficiency, renewable energy, environmental security, efficient resource use, environmental innovation.

Аннотация: Узбекистан, как и другие страны Центральной Азии, обладает высокой уязвимостью к изменениям климата, что усиливает актуальность перехода к «зелёной экономике». В статье проводится комплексный анализ стратегии Узбекистана по переходу к устойчивому развитию через внедрение экологически чистых технологий, рациональное использование водных и энергетических ресурсов, развитие возобновляемой энергетики и создание «зелёных» рабочих мест. На основе анализа выявлены ключевые проблемы, включая ограниченный доступ к финансированию, нехватку институционального потенциала и слабую технологическую базу. Вместе с тем подчеркиваются перспективы международного сотрудничества и адаптации успешных зарубежных практик. Представленные выводы имеют научную и прикладную ценность для дальнейшего продвижения экологически устойчивой модели развития в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, энергоэффективность, возобновляемая энергетика, экологическая безопасность, рациональное использование ресурсов, экологические инновации.



KIRISH

Hozirgi kunda global iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida dunyo hamjamiyati bir qator murakkab muammolar va cheklolarga duch kelmoqda. Aholining ehtiyojlari cheksiz bo'lsa-da, mavjud tabiiy resurslarning chegaralanganligi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning keskin ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi hali ham qazib olinadigan yoqilg'ilarga tayanadi. Bu esa global miqyosda ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, korxona va zavodlar faoliyati natijasida atmosferaga katta miqdorda issiqxona gazlari (IG) chiqarilmoqda. Bu holat iqlim o'zgarishining kuchayishiga, o'z navbatida esa qurg'oqchilik, yer degradatsiyasi, ekin maydonlarining qisqarishi, o'rmonlarning nobud bo'lishi kabi ekologik muammolar va ularning ijtimoiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Ushbu holatlar mavjud jahon iqtisodiy modeli barqaror emasligini ko'rsatib, rivojlanish tamoyillarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada, iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy adolatni uyg'unlashtiruvchi "yashil iqtisodiyot"ga o'tish eng maqbul yo'l sifatida tan olindi.

Bugungi kunda ekologik barqarorlik va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish global iqtisodiy va siyosiy kun tartibining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. O'zbekiston iqlim o'zgarishiga nisbatan zaiflik darajasi bo'yicha 191 ta davlat ichida 96-o'rinni egallaydi (ND-GAIN, 2019). Mamlakatda zilzila va toshqinlar xavfi yuqori bo'lib, har yili o'rtacha 1,4 million kishi ushbu ofatlardan aziyat chekmoqda va bu iqtisodiyotga deyarli 3 milliard AQSh dollari miqdorida zarar yetkazmoqda. Mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelayotgan rivojlanish muammolarining 70 foizi toza suv tanqisligi bilan bog'liq [1]. Jahon Resurslari Instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligidan eng ko'p zarar ko'rayotgan 25 davlatdan biri hisoblanadi. Suv taqchilligi va yerlarning degradatsiyasi natijasida qishloq xo'jaligi mahsuldorligi pasaymoqda va oziq-ovqat xavfsizligi xavf ostida qolmoqda [2].

Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik ehtiyoj, balki barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartiga aylanmoqda. Bu yo'l iqtisodiy o'sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuvni taqozo etadi [4].

O'zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy resurslarga boyligi, xususan quyosh va shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha global tajribalardan foydalanish imkoniyati mamlakat uchun muhim ustuvorliklarni yuzaga keltirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish asosan qazilma resurslarni ekspluatatsiya qilish, tog'-kon sanoati va energetikaga asoslangan bo'lsa-da, bu holat energiyani ko'p iste'mol qiluvchi sanoat strukturasini shakllantirdi. Natijada, O'zbekiston issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda, Yevropa va Markaziy Osiyoda esa yetakchi o'rinni egallaydi [3].

Mazkur maqola O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni baholash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining barqaror boshqaruvi "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Berndtsson va Tussupova suv resurslarining kamayib borayotganligi fonida, O'zbekiston kabi davlatlarda suvni tejash texnologiyalariga o'tishni kechiktirmaslik zarurligini ta'kidlaydi. Jahon resurslari institutining Aqueduct platformasi ma'lumotlari esa O'zbekiston suv taqchilligi yuqori bo'lgan 17 davlat qatoriga kirishini ko'rsatadi, bu esa "yashil" o'sishga to'siq bo'lishi mumkinligini isbotlaydi.

Issiqxona gazlari chiqindilari masalasida WRI CAIT ma'lumotlar bazasi asosida tayyorlangan hisobotlarda yoqilg'i-energetika kompleksining umumiy emissiyaning 90 foiziga yaqinini tashkil etishi ko'rsatilgan. Bu esa energiya sektorini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish strategiyasining asosiy zaruratga aylanganini ko'rsatadi.

Jahon bankining hujjatlarida O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energetika va qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni kengaytirish bo'yicha yondashuvlar taklif qilingan. IEA (Xalqaro energiya agentligi) esa elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish O'zbekiston uchun uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik foyda keltirishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarorida o'tish bo'yicha strategik yo'nalishlar, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 15 GVtga yetkazish va issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish aniq belgilab qo'yilgan.



Ushbu ilmiy manbalar O'zbekistonning "yashil" iqtisodiy o'sishga o'tishda qanday muammolar va imkoniyatlarga ega ekanini ilmiy asosda yoritib beradi hamda strategik qarorlarni qabul qilishda muhim manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tadqiqot metodologiyasi bir qator muhim aspektlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonni tahlil qilishda quyidagi ilmiy usullar va yondashuvlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi:

- Maqsadlarni aniqlash: Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy maqsadlari – ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolat mezonlarini aniqlash va ularni mezonlar asosida o'lchash.

- Adabiyotlar tahlili: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va ekologik innovatsiyalar bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy izlanishlar, statistik hisobotlar va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali konseptual asoslarni shakllantirish.

- Monitoring va baholash tizimi: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni tizimli ravishda kuzatish, natijalarni baholash va jarayon samaradorligini aniqlash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqish.

Mazkur metodologik yondashuvlar orqali yashil iqtisodiyotga o'tishning barcha asosiy yo'nalishlari – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar chuqur o'rganiladi hamda milliy sharoitlarga moslashtirilgan samarali strategiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil uslublari uyg'un holda qo'llanilib, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar inobatga olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki kelajak avlodlar uchun toza va barqaror muhit yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon kompleks yondashuvni, tizimli islohotlarni va jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladi. O'zbekiston uchun bu strategiya qator dolzarb muammolar va imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

- Investitsiya va moliyaviy cheklovlar: Yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish katta moliyaviy resurslarni talab etadi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, bu yo'nalishda yetarli investitsiya mablag'lari mavjud emas. Shu sababli, davlat–xususiy sheriklik, xalqaro grantlar va iqlim moliyasi vositalaridan foydalanish zarur.

- Suv resurslarining tanqisligi: O'zbekiston suv resurslari bo'yicha cheklangan imkoniyatlarga ega davlatlar sirasiga kiradi. Iqlim o'zgarishi natijasida kuchayib borayotgan qurg'oqchilik, mavjud suv resurslaridan samarasiz foydalanish va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari mavjud muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Ushbu sharoitda suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, sug'orish tizimlarini zamonaviylashtirish va kam suv talab qiluvchi qishloq xo'jaligi ekinlariga ustuvorlik berish strategik ahamiyat kasb etadi.


- Atrof-muhitning ifloslanishi: Sanoat korxonalari, transport vositalari va qishloq xo'jaligi faoliyati O'zbekistonning ekologik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi inson salomatligi, qishloq xo'jaligi unumdorligi va tabiiy ekotizimlar barqarorligiga tahdid solmoqda. Bu muammoni bartaraf etish uchun sanoat korxonalarida chiqindilarni kamaytiruvchi va tozalovchi texnologiyalarni joriy etish, avtomobillar emissiyasini nazorat qilish va ekologik jihatdan toza qishloq xo'jaligi amaliyotlariga o'tish zarur.

2015–2020-yillar kesimida elektr energiyasi iste'moli hajmi turli o'sish tendensiyasiga ega, elektr energiyasi samaradorligi esa 2020-yilga kelib 3,2 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2020-yil elektr energiyasi iste'moli hajmi o'tgan yilga nisbatan 0,5 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab esa COVID-19 pandemiyasi sabab mamlakatda ko'plab korxona va zavodlar faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, qolaversa YAIM o'sishi ham o'tgan yillarga nisbatan keskin tushib ketishiga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda esa mamlakat YAIM va energiya samaradorligining o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin, lekin bu ko'rsatkichlar 2024-yil iyun oyi ma'lumotlari bo'lganligi sababli biroz pastligini ko'rishimiz mumkin, ammo bu ko'rsatkichlar yil yakuniga qadar ortib boradi. Shu bilan birga, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini qamrab olishi kerak. Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida elektr energiyasi iste'molini ko'rib chiqqan bo'lsak, quyida esa umumiy energiya ishlab chiqarish (MWh) tarkibida qayta tiklanuvchi energiya ulushini foizlarda ko'rib chiqamiz. Bu esa o'z navbatida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishda samarali ko'rsatkichlar qatoridan joy oladi(1-rasm).



1-rasm O'zbekistonda energiya iste'moli samaradorligi (2015–2023 yillar) [4].

2015–2023-yillar davomida O'zbekistonda umumiy energiya ishlab chiqarish hajmi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining izchil o'sib borayotganligi kuzatiladi. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda ishlab chiqarilgan energiya hajmi 50 MWh bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich har yili ortib borib, 2023-yilda 70 MWh ga yetgan. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya ulushi ham sezilarli darajada oshgan. Agar 2015-yilda bu ko'rsatkich atigi 8,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib u 19,2 foizga yetgan. Bu esa mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va energetika sohasini diversifikatsiya qilish borasida muhim qadamlar qo'yilayotganini anglatadi. Yildan-yilga energiya ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan birga, ushbu hajmdagi ekologik toza manbalar ulushining ortib borayotgani O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida amaliy natijalar mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat qayta tiklanuvchi energiya salohiyatining bosqichma-bosqich ishga solinayotganini va bu yo'nalishda qabul qilingan davlat dasturlarining samaradorligini tasdiqlaydi(2-rasm).




2-rasm Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi (2015–2023 yillar)[4].



Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2015-yilda umumiy elektr energiya ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiyalar ulushi 8,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 19,2 foizga ortgan, ya'ni bu yillar kesimida o'sish tendensiyasiga ega. Albatta, bu ijobiy holat, lekin bu ko'rsatkich bir muncha pastroq. Prezidentimizning 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish [5] haqida alohida ta'kidlab o'tganlar.

Tojikiston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmidagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini foizlarda ko'rsatadi. Diagrammada ustunlar orqali har bir mamlakat uchun bu ko'rsatkich aniq aks ettirilgan:

- Tojikiston: qayta tiklanuvchi energiya ulushi eng yuqori – 98%, bu esa asosan gidroelektr stansiyalarining salohiyati bilan bog'liq.
- Qirg'iziston: 91%, bu ham ko'p jihatdan suv resurslariga tayanuvchi energiya tizimi bilan izohlanadi.
- Turkiya: 54% bilan o'rta o'rinda, bu ko'rsatkich quyosh va shamol energiyasi sohasidagi yutuqlar bilan bog'liq.
- O'zbekiston: 40% bilan eng past ko'rsatkichga ega, bu esa hali-hanuz qayta tiklanuvchi manbalarni joriy etish imkoniyatlari to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi(3-rasm).



3-rasm. Elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi [4].

Ayrim mamlakatlarda suv resurslari seroblighi sababli elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan kam. Xususan, Tojikiston ishlab chiqaradigan elektr energiyasining 98 foizi Gidroelektr stansiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Qirg'izistonda esa mazkur ko'rsatkich 91 foizni tashkil etadi. Shu sababli mazkur mamlakatlarda tariflar ham nisbatan arzon. Turkiyada elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 54 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari ishlab chiqilgan, hamda mazkur manbalar ulushini 2030-yilga borib elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 40 foiziga yetkazish rejalashtirilgan.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun turli sohalarida keng qamrovli choralarni ko'rish kerak. O'zbekiston hukumati qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratishi kerak. Ushbu choralar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini barqaror va ekologik jihatdan toza qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi – bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'lida belgilangan aniq va maqsadli yo'nalishlar majmuasidir. Ushbu strategik dasturning markazida energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda aholi uchun yashil, sog'lom va barqaror muhit yaratish g'oyasi turadi. Rejalashtirilgan ko'rsatkichlar orqasida katta maqsadlar yotibdi: issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yildagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr



energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'proqqa yetkazish va bu borada 15 GVt quvvat yaratish ko'zda tutilgan. Bular bilan birga, sanoatdagi energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, YalMga to'g'ri keladigan energiya sarfini esa 30 foizga kamaytirish rejalashtirilgan. Suv resurslariga kelsak, 1 million gektar maydonga suvni tejovchi sug'orish texnologiyalari joriy qilinadi, bu esa ayniqsa qurg'oqchil iqlim sharoitida katta yutuq bo'ladi. Shuningdek, har yili 200 million dona ko'chat ekilib, shaharlardagi yashil maydonlar 30 foizdan ortiq darajaga kengaytiriladi. O'rmon fondi zaxiralari 90 million kub metrdan oshiriladi, bu esa ekotizimni tiklashda muhim rol o'ynaydi. Eng e'tiborga molik jihatlardan biri shuki, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning 65 foizini qayta ishlash choralari ko'rilmogda. Bu kabi yondashuvlar nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va jamiyatni ekologik ongli yashash tarziga o'rgatishda ham katta ahamiyatga ega. Shu maqsadlarga erishish orqali O'zbekiston o'zini global "yashil iqtisodiyot" harakatining faol ishtirokchisiga aylantirmogda.

1-jadval. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi doirasida amalga oshirilishi reja qilingan maqsadlar [7].

№	2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi	Kutilayotgan natijalar
1	Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari	2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish	ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish
3	Sanoat sohasida energiya samaradorligi	kamida 20 foizga oshirish
4	Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmi	qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
5	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish
6	Yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish	shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish
7	Respublika o'rmon fondi zaxiralari	fond zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish
8	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash	qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish

Mamlakatimiz oldida turgan asosiy muammolardan biri bu suv ta'minotidan samarali foydalanish hisoblanadi. Xuddi shu kabi, jamiyatimiz oldida turgan asosiy muammolardan yurtimizda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish orqali qutulish eng samarali usul hisoblanadi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2030-yilgacha issiqxona gazlarining chiqish darajasini 35 foizga kamaytirish, shaharlarda yashil maydonlarni 30 foizga kengaytirish va 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish yuqorida aytib o'tilgan muammolarning samarali yechimlari sifatida qaraladi.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi mamlakatda ekologik muammolarni hal qilish, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi ekologik zararlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotning barqarorligini oshirishdir. O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va boy tabiiy resurslari bu yo'nalishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo mavjud muammolarni hal etish hamda tegishli resurslarni safarbar qilish zarur.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar mavjud. Bular:

- Texnologiyalarni yangilash: Yashil texnologiyalarni keng joriy etish uchun hukumat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur.
- Qonunchilikni rivojlantirish: Yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi qonunchilik bazasini yaratish, ekologik normalar va standartlarni joriy etish kerak.
- Ta'lim va kadrlar tayyorlash: Yashil iqtisodiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish lozim.

Bu taklif va xulosalar orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga erishishi mumkin. Qolaversa, yuqoridagi harakatlar O'zbekistonning barqaror va yashil kelajagini shakllantirishga yordam beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim strategik yo'nalishidir. Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, suv resurslarining tanqisligi, issiqxona gazlari chiqindilarining yuqoriligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi kabi omillar ushbu strategiyaning dolzarbligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari va milliy qarorlar asosida olib borilayotgan islohotlar istiqbolli imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf etish va yashil iqtisodiyotga samarali o'tishni ta'minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Energiya samaradorligini oshirish: Energiya iste'molini kamaytirish va yo'qotishlarni minimallashtirish uchun sanoat va kommunal sektorlar kesimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish: Quyosh va shamol energiyasi loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

- Suv resurslarini boshqarish tizimini isloh qilish: Suv tejovchi texnologiyalarni ommalashtirish va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi.

- Moliyaviy rag'batlantirish va soliq imtiyozlari: Ekologik toza texnologiyalarni joriy etayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy yengilliklar belgilanishi lozim.

- Ta'lim va ilmiy salohiyatni kuchaytirish: Yashil iqtisodiyot yo'nalishida kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, amaliyotga yo'naltirilgan tadqiqotlar sonini ko'paytirish zarur.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining izchil joriy etilishiga, ekologik xavfsizlikning ta'minlanishiga va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Berndtsson, R. va Tussupova, K. 2020. "The Future of Water Management in Central Asia." Suv, 12, № 8: 2241. <https://doi.org/10.3390/w12082241>
2. Jahon resurslari institutining Aqueduct tools ma'lumotlariga ko'ra. <https://www.wri.org/insights/17-countries-home-one-quarter-worlds-population-face-extremely-high-water-stress>
3. Yoqilg'i-energetika kompleksi mamlakat karbonat angidrid emissiyasining 9/10 qismini tashkil etadi. Issiqxona gazlari emissiyasi faktlar jadvali: O'zbekiston. <https://www.climatelinks.org/resources/greenhouse-gas-emissions-factsheet-uzbekistan>. Jahon resurslari instituti Iqlimni tahlil qilish ko'rsatkichlari vositasi (WRI CAIT) ma'lumotlar bazasi asosida
4. The World Bank IBRD, IDA | WORLD BANK GROUP ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (World Bank Document)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son
6. <https://www.iea.org/countries/uzbekistan/electricity>
7. <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>